

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURADDINOVA MOHIRA BAHODIROVNA

***EUPHORBIA MILII* O‘SIMLIGI KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK
FAOLLIGINI TEKSHIRISH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nuraddinova Mohira Bahodirovna:

Euphorbia milii o‘simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini tekshirish 5

Нураддинова Мохира Баходировна:

Исследование химического состава и биологической активности растения
Euphorbia milii 21

Nuraddinova Mokhira Bakhodirovna:

Investigation of chemical composition and biological activity of *Euphorbia milii* plant 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURADDINOVA MOHIRA BAHODIROVNA

***EUPHORBIA MILII* O‘SIMLIGI KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK
FAOLLIGINI TEKSHIRISH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/K541 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xaitbayev Alisher Xamidovich kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Shomurotov Shavkat Abduganiyevich kimyo fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim Nishonov Mirkozim Fozilovich texnika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi., 19. Tel.: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93, e-mail: fardu-info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

V.U.Xo‘jayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi k.f.d., professor

Sh.Sh.Turg‘unboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda o‘simlik xomashyolaridan biologik faol moddalarni ajratib olish, ajratib olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini o‘rganish, yangi moddalar asosida turli kasalliklarni davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dori vositalari olishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining ko‘pgina qismini tabiiy manbalardan olish yo‘lga qo‘yilgan. Tabiiy manbalardan olinadigan dorivor vositalar olinish samaradorligi, organizm tomonidan oson o‘zlashtirilishi, salbiy ta’sirlari kamligi, biologik mosligi hamda o‘ziga xos ta’sirlari tufayli sun’iy yaratilgan dorivor vositalardan tubdan farq qiladi. Ayniqsa antioksidant, antibakterial va zamburug‘larga hamda o‘sma kasalliklariga qarshi ta’sirga ega kimyoviy birikmalarga farmatsevtika sanoatida talab yuqoriligi sababdan biologik faol moddalarga boy o‘simlik turlarini aniqlash, ulardan biologik faol moddalar ajratib olish va farmatsevtika sanoatiga tavsiya etish kimyo sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda *Euphorbiaceae* oilasi *Euphorbia* turkumiga kiruvchi o‘simliklardan turli xil biologik faollikka ega bo‘lgan birikmalarni ajratib olish, ularni sifat va miqdor tahlillarini amalga oshirish hamda identifikatsiya qilish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari qilinmoqda. Jumladan, “Silymarin”, “Euphorbia herb”, “Euphorbia cream” kabi vositalari antioksidantlik, antibakteriallik, gepatoprotektorlik hamda o‘sma hujayralari o‘shini to‘xtatish xususiyati mavjudligi tufayli ushbu turlarning kimyoviy tarkibini o‘rganish, biologik faolligini tekshirish va olingan natijalar asosida yangi dori vositalari yaratish uchun ilmiy asos ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda dunyo bozorida raqobatbardosh yangi turdagi kimyoviy moddalar sintez qilishda mahalliy xomashyolar asosida samarali dori vositalarini yaratish, moddalarni sintez qilishning yangi iqtisodiy samarali usulini ishlab chiqish, natijada farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, kimyo va atrof-muhitni yaxshilash borasida ilmiy izlanishlar olib borilib muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu boradagi tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan¹. Ushbu strategiyada ta’kidlanganidek, yuqori ta’sirga ega dori vositalari olish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash, mahalliy o‘simliklardan istiqbolli dori vositalari, biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqish, biologik faol moddalarni ajratib olish texnologiyasini yaratish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-55-son Farmoni, 2017-yil 17-iyuldagi “Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3137 qarori shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarda ko‘zda

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida *Euphorbiaceae* oilasiga kiruvchi o‘simliklar tarkibini o‘rganish, biologik faol moddalarni ajratib olish hamda amaliyotga tadbiiq etish bo‘yicha izlanishlar jadal olib borilmoqda. Xususan, xorijlik olimlar - C.H.Persoon, T.Yoshida, T.Okuda, K.Zheng, F.Luo, Y.Sadeghi-Aliabadi, S.Singla, A.Kamla, S.M.Amer, Hye Sook Yum-Choi, Talha Ali Chohan, Saleem Hamid, Salvador Pancorbo, R.Haleshappa, D.Marie Cris, Charles Des Moulins, M.Chambers, Sadeghi Aliabadi, N.Haworth va boshqalar tomonidan turli hududlarida o‘sadigan *Euphorbiaceae* oilasi vakillari tarkibidagi biologik faol moddalar va ularning farmakologik xususiyatlari hamda biologik faolliklari o‘rganilgan.

Respublikamizda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish hamda ularni farmatsevtika va tabobatga tadbiiq qilish yo‘nalishida akademik I.R.Asqarov, professor A.X.Xaitbayev, professor A.A.Ibragimov hamda V.U.Xo‘jayev kabi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Bundan tashqari, *Euphorbiaceae* oilasiga kiruvchi o‘simliklar tarkibi va biologik ahamiyati akademik SH.I.Salixov, professor S.M.Mavlyanov, kimyo fanlari doktori N.G.Abdullajonova va R.N.Raximovlarning *Euphorbiaceae* oilasi vakillari tarkibidan polifenollar ajratib olish va ular asosida viruslarga (gripp, OIV-1) qarshi dori vositalari yaratish, kimyo fanlari doktori M.M.Tadjibayevning fenol va azot saqlovchi birikmalarni ajratib olish, U.G.Gaipovning *Euphorbia* turkumiga kiruvchi o‘simliklardan ajratib olingan polifenollarni mitoxondriya parametrlariga ta’sirini aniqlash kabi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida o‘rganilgan. *Euphorbiaceae* oilasiga kiruvchi ko‘pgina turlarning kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari o‘rganilganligiga qaramasdan, hozirgi kungacha *Euphorbia milii* o‘simligi tarkibidagi biologik faol moddalarning miqdori, ayniqsa ularning iqlim sharoitlariga bog‘liqligi, antioksidant, antibakterial va zamburug‘larga qarshi ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan.

Shuning uchun O‘zbekistonning turli hududlarida o‘suvschi *Euphorbia milii* o‘simligi tarkibidagi kimyoviy moddalarni o‘simlik o‘sish sharoitiga ko‘ra sifat va miqdor jihatdan o‘rganish va taqqoslash, ekstraktlarining biologik faolligini tekshirish hamda natijalar asosida dori-vositalari ishlab chiqarish uchun tabiiy xomashyo sifatida taklif qilish, maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tabiiy birikmalardan biologik faol moddalar ajratib olish” mavzusidagi fundamental izlanishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Farg‘ona, Toshkent va Xorazm viloyatlarida o‘svuchi *Euphorbia milii* o‘simligining kimyoviy tarkibini hamda o‘simlik ekstraktlarining biologik faolligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Euphorbia milii o‘simlik namunalari tarkibini sifat va miqdor jihatidan GX-MS usuli yordamida viloyatlar kesimida solishtirma o‘rganish;

YuSSX usuli yordamida *Euphorbia milii* o‘simligi ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlar va suvda eruvchan vitaminlar, tegishli usullar yordamida umumiy oqsillar va suvda eruvchan polisaxaridlar miqdorini solishtirma o‘rganish;

ICP-MS usuli yordamida *Euphorbia milii* ekstraktlari tarkibidagi mikro- va makro elementlarni sifat va miqdor jihatdan solishtirma o‘rganish;

Euphorbia milii o‘simligi ekstraktidan β -amirin moddasini ajratib olishning yangi usulini ishlab chiqish, hamda antioksidantlik xususiyatini tekshirish;

Amirin moddasining nazariy jihatdan fazoviy tuzilishini o‘rganish maqsadida ChemOffice dasturining emperik usuli (MM2), Hyperchem dasturining yarim emperik usullari (PM3, RM1, AM1) hamda Gaussian 09W dasturi paketida (Ground state, DFT, Unrestricted, B3LYP) metodi asosidagi (6-311g (d, p)) bazis o‘rnatmasi yordamida kvant-kimyoviy hisoblashlar o‘tkazish;

Euphorbia milii o‘simligi ekstraktlari farmako-toksikologik xususiyati va biologik faolliklarini tekshirish hamda ishlatilish sohalarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublikamizning turli xil iqlim sharoitida o‘svuchi ya’ni Xorazm, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridan yig‘ilgan *Euphorbia milii* o‘simliklari vegetativ organlari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Euphorbia milii* o‘simligi tarkibidagi polisaxaridlar miqdori, umumiy oqsillar miqdori, makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar, flavonoidlar hamda o‘simlik poyasidan β -amirin ajratib olish, tuzilishi va biologik xossalarni o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishi natijalarini olishda filtrlash, haydash, tozalash, quritish, ekstraksiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), gaz xromatografiyasi GX-MS, ICP-MS, Keldal usuli, kvant-kimyoviy hisoblashlar (ChemOffice (MM2), Hyperchem (PM3, RM1, AM1), Gaussian 09W dasturi, PASS online va biologik faollikni aniqlash uchun farmakologik hamda toksikologik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida o‘svuchi *Euphorbia milii* o‘simligi tarkibida 8 xil makro va 30 xil mikroelementlar, apigenin, giperozid va gipoleotinin kabi flavonoidlar, B₂, PP, B₉, B₁₂ C suvda eruvchan vitaminlar, 6-7% umumiy polisaxaridlar mavjudligi shuningdek, o‘rganilgan moddalarning sifat va miqdoriy tarkibi viloyat (Toshkent, Xorazm va Farg‘ona) lar kesimida farq qilishi aniqlangan;

kompyuter dasturlari yordamida α - va β -amirin moddalarining insulin promotorligi, gepatoprotektor, antibakterial, yallig‘lanishga va virusiga qarshi biologik faolliklari nazariy aniqlanishi va taqqoslanishi natijasida β -amirinning faolligi yuqoriligi isbotlangan;

Euphorbia milii o'simligi ekstraktlarini tarkibiy qismlarga ajratilib GC-MS yordamida identifikatsiyalanishi asosida Farg'ona, Toshkent hamda Xorazm viloyatida o'suvchi o'simliklarning poyasi va bargi tarkibida fitol, squalin, tokoferol, taraxerol, karotinoid, α -amirin, β -amirin, tunbergol, fenantren, lupeol, naftalin va β -sitosterol moddalari mavjudligi aniqlangan.

Euphorbia milii o'simligi tarkibidan β -amirin moddasi ajratib olishning yangi iqtisodiy samarali usuli ishlab chiqilgan;

Euphorbia milii o'simligi xloroformli ekstraktining toksikologik ta'sirini aniqlash orqali VI guruhga, ya'ni zaharsiz birikmalar sinfiga tegishli ekanligi eksperimental isbotlangan;

Euphorbia milii o'simligi etanoli ekstrakti va β -amirin moddasining antioksidantlik xossasi mavjudligi, etanoli ekstraktining antibakterial va xloroformli ekstraktining zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsata olishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublikada keng tarqalgan mahalliy xomashyo hisoblanadigan *Euphorbia milii* o'simligidan bosqichma-bosqich (yuvish, quritish, ekstraksiya, neytrallashtirish, filtrlash, qayta cho'ktirish) amirin moddasini ajratib olish usuli ishlab chiqilgan;

Euphorbia milii o'simligi tarkibidagi flavonoidlarning miqdoriy tahlili asosida yangi dori vositalarini olishda flavonoidlarni standartlash usuli ishlab chiqilgan;

Euphorbia milii o'simligi poyasi va bargi aralashmasidan olingan spirtli ekstrakt karam poyasi bakteriozi va pomidorning bakterial rakiga qarshi zararlanish darajasini 30-40% ga kamaytirish va hosildorlikni 8-10% ga oshirish imkonini berganligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi biologik faol birikmalarni analiz qilishda zamoniy fizik-tadqiqot usullaridan yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), gaz xromatografiya – mass-spektrometriyasi (GX-MS), kvant-kimyoviy hisoblashlar (ChemOffice (MM2), Hyperchem (PM3, RM1, AM1), Gaussian 09W dastur paketida (Ground state, DFT, Unrestricted, B3LYP) metodi asosidagi (6-311g (d, p)) basis o'rnatmasi, PASS online) va biologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, tajribalar natijalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tan olingan mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor *Euphorbia milii* o'simligidan " β -amirin" moddasining yangi texnologiya asosida olinishi va antioksidantlik xossasining aniqlanishi, o'simlik tarkibidagi moddalarning iqlimga bog'liqligini tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar miqdorini namunalar tarkibida turlicha ekanligini aniqlash asosida ilmiy isbotlab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, *Euphorbia milii* o'simliging spirtli ekstraktini antibakterial ta'sirga ega modda sifatida foydalanish mumkinligi, ajratib olingan β -amirin moddasi antioksidant, gepatoprotektor hamda o'sma hujayralarining o'sishini ingbirlovchi vosita sifatida qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Euphorbia milii* o‘simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini tekshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Euphorbia milii o‘simligidan olingan β -amirin uchun tashkilot standarti O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (Ts 200845944-111:2023-sonli tashkilot standarti). Natijada, β -amirin moddasini qisqa fursatda hamda iqtisodiy jihatdan samarali usulda olish imkonini bergan.

Euphorbia milii o‘simlik turlari tarkibidan flavonoidlar, aminokislotalar, yog‘lar va boshqa biologik faol moddalarni ajratib olish, ajratib olingan flavonoidlarni spektroskopik tahlil qilish usullaridan № PZ-2017092435 “Xorazm viloyati sharoitida dorivor o‘simliklarni o‘stirish va ular asosida biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyihada dorivor o‘simliklar tarkibidagi flavonoidlarni sifat va miqdor jihatidan aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining 2023-yil 21-fevraldagi 4/1255-350 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada dorivor o‘simliklar asosida yangi dori vositalarini ishlab chiqish jarayonida ularni flavonoidlar asosida standartlashda UB-spektroskopiyadan foydalanish imkonini bergan.

o‘simlikdan olingan spirtli ekstrakt Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani “Masharip ota” fermer xo‘jaligida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2023-yil 20-fevraldagi №23-15/01-146 ma‘lumotnomasi). Natijada karam va pomidorning zararlanish darajasi 30-40% ga kamaytirish va hosildorlikni 8-10% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi, maqsad hamda vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ifodalangan, O'zbekiston Respublikasida fan hamda texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi keltirilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish asoslari keltirilgan, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Euphorbiaceae* o'simliklar oilasi – biologik faol moddalar manbai sifatida (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda *Euphorbiaceae* oilasi vakillarining yer yuzida va O'zbekiston hududida tarqalishi hamda *Euphorbia* turkumiga kiruvchi turlarning dorivor xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, *Euphorbia milii* o'simligining kimyoviy tarkibi, biofaol moddalarni aniqlash va olish usullari, o'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarning kimyoviy tuzilishlari hamda farmakologik ta'sirlari va o'simlik ekstraktining biologik aktivligi, amirin moddasining olinishi hamda identifikatsiyasi bo'yicha adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“*Euphorbia milii* o'simligining kimyoviy tarkibi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi *Euphorbia milii* o'simligining Farg'ona, Toshkent va Xorazm namunalarining ekstraksiya jarayoni, sifat reaksiyalari natijalari, o'simlik namunalarini tarkibidagi moddalarning gaz xromatografiyasi mass-spektrometriyasi usuli bo'yicha tahlili, suvda eruvchan vitaminlar va flavanoidlarning miqdorini yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida olingan natijalari tahlili, makro va mikroelementlar hamda og'ir metallarning ICP-MS usuli bo'yicha tahlili, oqsillar va suvda eruvchan polisaxaridlar miqdorining solishtirma natijalari, β -amirin moddasining olinishi va identifikatsiyasi haqidagi nazariy hamda amaliy natijalar ma'lumotlari keltirilgan.

O'simliklarning biologik faolligi hamda farmakologik xususiyatini aniqlashda o'simlik tarkibidagi kimyoviy moddalarning turini hamda qancha miqdorda ekanligini bilish muhimdir. Adabiyotlar sharhi asosida, *Euphorbia milii* o'simligi flavonoidlar, kumarinlar va ayniqsa terpenoidlar, shuningdek boshqa biofaol birikmalarga boy ekanligi o'rganildi. Shu sababdan, *Euphorbia milii* o'simligi tarkibidagi terpenoidlar hamda boshqa uchuvchan moddalarni GX-MS usuli yordamida sifat hamda miqdor jihatdan o'rganish maqsad qilindi.

Gaz xromatografiya mass-spektrometriyasi usuli yordamida *Euphorbia milii* tarkibidagi moddalarni aniqlash maqsadida 3 xil namunalar: Farg'ona, Toshkent va Xorazm *Euphorbia milii* o'simliklari tanlandi va turli xil erituvchilarda ekstraksiya qilindi. Analiz uchun har bir viloyatdan terilgan o'simliklarning bargi va poyasi alohida-alohida ekstraksiya qilindi. Natijalar asosida o'simlik namunalarini poya va barglarida aniqlangan moddalar viloyatlar kesimida o'zaro taqqoslandi va o'simlik tarkibiga iqlim ta'siri o'rganildi.

Euphorbia milii o‘simligi tarkibidagi moddalarning GX-MS natijalari

№	Modda nomi	Kimyoviy formulasi	Farg‘ona		Toshkent		Xorazm	
			barg	poya	barg	poya	barg	Poya
1	Fitol	C ₂₀ H ₄₀ O	91.5	-	88.0	91.5	-	-
2	Squalin	C ₃₀ H ₅₀ O	79.7	-	-	-	81.3	-
3	Tokoferol	C ₂₉ H ₅₀ O ₂	71.0	-	71.0	-	-	-
4	Tunbergol	C ₂₀ H ₃₄ O	-	91.2	-	-	-	-
5	Fenantren	C ₂₀ H ₃₂	-	68.6	-	94.2	-	83.3
6	Naftalin	C ₂₀ H ₃₂	-	15.9	-	60.1	-	-
7	Karotinoid	C ₄₀ H ₆₆	-	-	93.6	-	-	-
8	β-amirin	C ₃₀ H ₅₀ O	97.9	-	2.79	-	89.0	2.79
9	α-amirin	C ₃₀ H ₅₀ O	-	-	94.0	-	94.0	-
10	Lupeol	C ₃₀ H ₅₀ O	-	-	-	94.0	-	-
11	Tarakserol	C ₃₀ H ₅₀ O	-	-	-	0.93	-	-
12	β-sitosterol	C ₂₉ H ₅₀ O	-	-	-	-	90.9	-

GX-MS natijalariga ko‘ra *Euphorbia milii* o‘simligining tarkibida α va β-amirin, fenantren, fitol, tokoferol, squalin, naftalin, karotinoid, lupeol hamda β-sitosterol kabi asosiy moddalar mavjudligi, ularning % lardagi aniqlik darajalari hamda viloyatlar kesimida sifat jihatidan farqlanishi o‘rganildi.

Tirik organizmlarda kechadigan biokimyoviy jarayonlarni fermentlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘simliklardan olinadigan vitaminlar aynan fermentativ jarayonlarda koferment vazifasini bajarganliklari sababli ahamiyatlidir. Shu sababdan, *Euphorbia milii* poyasi va bargi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar sifat va miqdoriy tahlil qilinib, namunalardagi natijalar o‘zaro taqqoslandi.

Euphorbia milii o‘simligi bargi va poyasidagi vitaminlar miqdori (mg/100)

№	Namuna nomi	Miqdori mg/100						
		B ₁	B ₆	B ₉	PP	C	B ₂	B ₁₂
1	Farg‘ona <i>Euphorbia Milii</i> bargi	-	-	0.001	1.91	0.12	-	0.02
2	Farg‘ona <i>Euphorbia Milii</i> poyasi	-	-	0.005	-	-	0.63	1.69
3	Xorazm <i>Euphorbia Milii</i> bargi	-	-	0.014	-	0.39	3.94	0.41
4	Xorazm <i>Euphorbia Milii</i> poyasi	-	-	0.023	-	-	1.91	0.64
5	Toshkent <i>Euphorbia Milii</i> bargi	-	-	-	-	-	1.57	0.56
6	Toshkent <i>Euphorbia Milii</i> poyasi			0.002	-	-	0.22	0.02

Euphorbia milii o‘simligining poyasi va bargi tarkibida B guruhga kiruvchi vitaminlardan B₁ (tiamin) va B₆ (piridoksin) vitaminlari aniqlanmadi. Farg‘ona viloyatidan keltirilgan namuna poyasi tarkibida vitamin B₁₂ (sianokobalomin) miqdori, Xorazm viloyatidan keltirilgan namuna bargi tarkibida vitamin B₁₂ (sianokobalomin) miqdori, Xorazm viloyatidan keltirilgan namuna poyasi tarkibida vitamin B₉ (foliy kislotasi) miqdori eng yuqoriligi o‘rganildi.

Euphorbia milii o‘simligi namunalarining poyasi va bargi tarkibidagi suvda eruvchan polisaxaridlarning umumiy miqdori aniqlandi va taqqoslandi.

3-jadval

Euphorbia milii o‘simligi tarkibidagi suvda eruvchan polisaxaridlarning umumiy miqdori (mg/100)

№	Namuna nomi	Polisaxarid miqdori
		%
1	Xorazm poyasi	4,59
2	Xorazm bargi	5,12
3	Toshkent poyasi	3,18
4	Toshkent bargi	6,27
5	Farg‘ona poyasi	2,88
6	Farg‘ona bargi	3,91

Olingan natijalar asosida namunalar poyasi va bargida suvda eruvchan polisaxaridlarning umumiy miqdori turlichaligi aniqlandi.

YUSSX usuli yordamida *Euphorbia milii* ildizi, poyasi va bargida asosan 3 xil flavonidlar: apigenin, giperazid hamda gipoleotinin aniqlanib, ularning miqdorlari namunalar tarkibida, shuningdek o‘simlik qismlarida turlicha miqdordaligi o‘rganildi.

4-jadval

Euphorbia milii o‘simligi tarkibidagi flavonoidlar miqdori (mg/100)

№	Flavonoid nomi	Farg‘ona			Toshkent			Xorazm		
		Ildiz	Poya	Barg	Ildiz	Poya	Barg	Ildiz	Poya	Barg
1	Robinin	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	Rutin	-	-	-	-	-	-	-	-	-
3	Apigenin	1.22	1.22	1.93	2.41	2.47	3.02	2.74	1.21	3.14
4	Giperazid	0.78	0.78	0.36	0.04	0.07	0.35	0.11	0.41	0.91
5	Gall kislotasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-
6	Gipoleotinin	0.21	0.21	-	0.12	0.59	0.11	0.18	0.75	0.03
7	Kversetin	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Biogen elementlar tirik organizmlarning hayotiy faoliyatida katta ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli *Euphorbia milii* o'simligi tarkibidagi makro- va mikro elementlarni sifat va miqdoriy jihatdan o'rganildi hamda natijalar o'zaro solishtirildi.


5-jadval

Euphorbia milii o'simligi tarkibidagi makroelementlar miqdori (mg/100)


Element	Toshkent			Xorazm			Farg'ona		
	Ildiz	Poya	Barg	Ildiz	Poya	Barg	Ildiz	Poya	Barg
Na	1583.09	209.98	248.55	22740.23	1034.87	1121.57	4422.35	2340.63	251.25
Mg	1898.45	1657.37	3252.80	4767.54	795.47	795.47	2270.67	8434.85	11132.16
Al	661.12	9.77	22.52	464.22	8.49	8.49	141.57	123.034	43.859
Si	2613.16	706.63	2017.42	2964.88	734.75	1924.47	395.52	2227.47	2710.63
P	3355.26	2394.21	11847.29	18073.01	5356.63	14937.83	3648.55	31832.78	12220.22
K	10806.01	7856.01	18575.19	38186.20	5552.52	42367.09	10673.75	58493.10	26178.58
Ca	1507.02	1454.26	3032.46	2928.69	1080.17	3785.26	9602.22	4001.65	41715.06
S	2613.16	706.63	2840.98	2964.88	734.75	3280.90	395.52	2227.47	3668.19

Euphorbia milii o'simligi tarkibida 8 xil makro- va 30 xil mikro elementlar aniqlanib, asosan Na, Mg, P, K, Ca makro elementlari hamda Mo, Ti, Sr, Cu, Nb, Fe mikro elementlarining miqdori nisbatan ko'pligi o'rganildi. Elementlar miqdori o'simlik o'sgan hududlar kesimida hamda o'simlik qismlarida bir-biridan farq qilib, Farg'ona namunasi ildizi, poyasi va bargida elementlar miqdori boshqa namunalarga qaraganda yuqoqiroqligi qayd etildi.

GX-MS natijalari tahlil qilinishi asosida *Euphorbia milii* o'simligining barcha hududlardan olib kelingan namunalari tarkibida biologik faol modda - amirin moddasi mavjudligi o'rganildi. O'simlik tarkibida β -amirinning umumiy miqdori α -amirinning umumiy miqdoridan yuqoriligi sababli Farg'ona viloyati *Euphorbia milii* o'simlik namunasi tarkibidan β -amirin moddasi ajratib olindi.




1-rasm. *Euphorbia milii* da aniqlangan β -amirin mass spektri



2 –rasm. *Euphorbia milii* dan olingan β -amirin IQ-spektrlari


Olingan β -amirinning mass-spektrlari adabiyotlarda keltirilgan β -amirinning mass-spektrlari bilan taqqoslandi hamda moddani tasdiqlash maqsadida IQ – spektrlari ham olindi.

Dissertatsiyaning « *Euphorbia milii* o‘simligi biologik faolligi nazariy va amaliy natijalari tahlili» deb nomlangan uchinchi bobida o‘simlik ekstraktlari hamda amirin moddalarining kvant-kimyoviy hisoblashlar nazariy natijalari hamda *Euphorbia milii* o‘simligi poyasi va bargidan olingan ekstraktlarning toksikologik xususiyati, antibakterial, antioksidant va zamburug‘lar o‘shini cheklovchi xususiyatlari natijalari tahlili berilgan. Kvant-kimyoviy hisoblashlarning dastlabki natijalari Gaussian 09 (Ground state, DFT, Undestricted, B3LYP) asosida 6-311G basis o‘rnatmasida olib boradi. Yordamchi dasturlar sifatida Avagadro 1.2.0, GaussView 6.0.16. va HyperChem dastur paketlaridan foydalanildi.



3-rasm. α -amirinning ESP natijalari

Ushbu natijalar, ikkala birikma ham kimyoviy reaksiyalarda va boshqa molekular bilan o‘zaro ta’sirlarda o‘xshash xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.



4 - rasm. β -amirinning ESP natijalari

PASS ONLINE dasturi yordamida ham α va β -amirinlarning biologik faolliklari nazariy jihatdan o‘rganildi.

6-jadval

α -amirinning PASS online dasturida olingan natijalari

Pa	Pi	Kasallik
0,934	0,002	Insulin promotori
0,872	0,002	Gepatoprotektor
0,820	0,003	Antibakterial
0,812	0,004	Yallig‘lanishga qarshi
0,793	0,003	Virusga qarshi (gripp)


Xususan, α -amirin va β -amirinlar mos ravishda insulin promotorligi, hepatoprotektorlik, antibakterial, yallig‘lanishga va virusga qarshi xususiyatlari yuqori ekanliklari aniqlandi.

7-jadval.

β -amirinning PASS online dasturida olingan natijalari

Pa	Pi	Kasallik
0,977	0,001	Insulin promotori
0,926	0,002	Gepatoprotektor
0,903	0,002	Antibakterial
0,868	0,002	Virusga qarshi (gripp)
0,843	0,005	Yallig‘lanishga qarshi

PASS ONLINE natijalaridan kelib chiqqan holda α -amirin va β -amirinlarni insulin va bakteriya tegishli oqsillar bilan o‘zaro bog‘lanishlarini MOLECULAR DOCKING dasturi yordamida o‘rganildi.




5 - rasm. β -amirin- oqsil kompleksida β -amirinning aminokislota qoldiqlari bilan bog‘lanishi


Molekulyar doking izlanishlari natijasida olingan komplekslarda ligand molekularining oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan (H-bog‘, VdV va b. bo‘yicha) ta’sirlashishlari

Ligand	Vodorod bo‘glanishda ishtirok etgan faol aminokislotalar	Bog‘lanishda ishtirok etmagan faol aminokislotalar
□-amirin	HIS4	HIS5, PHE1, GLN4, VAL3, TYR26, GLU4, UZ91029, PRO28
α-amirin		GLN4, VAL3, GLU4, GLY8, GLY1, TYR26, PRO28, HIS5, PHE1


Bog‘lanish energiyasi ($\Delta G_{\text{binding}}$) - ligand va retseptor o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchini aniqlash uchun ishlatiladigan molekulyar dokingning asosiy parametridir.



6-rasm. α -amirin- oqsil kompleksida α -amirinining aminokislota qoldiqlari bilan bog‘lanishi.



7-rasm. α -amirin- oqsil kompleksida α -amirinining oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan bog‘lanishi.



8-rasm. β-amirin- oqsil kompleksida β-amirinining oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan bog‘lanishi.

Molekulyar doking usulidan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotlar orqali β -amirinning insulin promotorligi hamda antibakterial faolligi α -amiringa nisbatan yuqoriroq ekanligi nazariy jihatdan o'rganildi.

Nazariy hisoblashlar natijalari asosida *Euphorbia milii* o'simligining biologik faolligi hamda toksikologik xususiyati *in vitro* usullarida tekshirildi.

9-jadval

Euphorbia milii o'simligi ekstraktining sichqonlar oshqozoniga kiritilganda uning o'tkir zaharlash ko'rsatkichlari

Guruhlar	Hayvon turi, jinsi	Doza mg/kg, ml	Guruhdagi hayvon/o'lgan hayvon soni	O'rtacha hayvon massasi (1 kun)	O'rtacha hayvon massasi (14 kun)	LD ₅₀ ishonch oralig'i bilan	LD ₈₄
<i>E.Milii</i> o'simlik ekstrakti	Erkak sichqon	1000	6/0	21	25	>5000 mg/kg	
		2000	6/0	20	25		
		3000	6/0	21	24		
		4000	6/0	20	22		
		5000	6/0	21	23		
Nazorat		0,5	6/0	20	24		

Euphorbia milii ekstraktining o'tkir zaharlash xususiyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki bir marotaba oshqozonga kiritilganda o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) >5000 mg/kg dan yuqori ekanligi va VI gurux zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi aniqlandi.

Euphorbia milii ekstraktlarining antioksidantlik xususiyatlari *in vitro* usulida, ajratib olingan Olingan antioksidantlik natijalari asosida *Euphorbia milii* poyasi va barg aralashmasining 70% etanoldagi fraksiyasi yuqori antioksidantlik xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

10-jadval

Euphorbia milii turli xil fraksiyalarining antioksidant faolligi natijalari

O'simlik namunalari		DPPH erkin radikallarni tozalash faolligi (%)			
		50 μ g/mL	100 μ g/mL	150 μ g/mL	EC ₅₀ qiyma (μ g/mL)
<i>E.Milii</i>	Atseton fraksiyasi	19.72 \pm 0.37 ^c	36.78 \pm 1.48 ^b	56.82 \pm 0.24 ^a	134.9

	Xloroform fraksiyasi	25.65±1.34 ^c	39.47±0.27 ^b	61.42±0.41 ^a	116.7
	Etanol fraksiyasi	32.46±1.36 ^c	46.32±1.21 ^b	68.23±0.18 ^a	111.3
	Askorbin kislotasi (vitamin C)	57.82±1.00 ^c	72.46±1.78 ^b	97.83±0.02 ^a	24.53

Euphorbia milii ekstrakti turli xil fraksiyalarining antibakterial ta'siri *in vitro* usulida 4 xil test mikroorganizmlar yordamida tekshirildi. Antibakterial faollikni aniqlash uchun *Euphorbia milii* fraksiyalarining natijalari nazorat moddalari hamda erituvchilar natijalari bilan taqqoslandi.

11-jadval

Euphorbia milii o'simligidan olingan ekstrakt fraksiyalarining antibakterial faolligi

Test mikroorganizmlar	<i>E. coli</i>	<i>K. pneumonia</i>	<i>Proteus. mirabilis</i>	<i>Pseudomonas. aeruginosa</i>
Maxsus efir	12±1.6	24±1.3	18±1.2	8±1.0
Lutalin moddasi	14±1.0	16±1.4	19±1.1	4±0.2
<i>E.Milii</i> benzin	14±1.3	18±1.2	18±1.3	6±0.1
<i>E.Milii</i> butanol	18±1.2	8±1.4	11±1.0	6±0.2
Ferula 3	12±1.0	16±1.3	22±1.2	4±1.0
<i>E.Milii</i> atseton	14±1.4	12±0.3	22±1.2	4±1.0
Butanol	8±1.2	nr	nr	4±1.02
Xloroform	6±1.2	nr	nr	5±0.2
Benzin	4±0.2	4±1.2	nr	4±1.1
EtOH	10±0.1	nr	nr	4±1.0
T. off.	nr	6±1.4	nr	8±1.3
70% etanol	nr	5±1.3	nr	nr
<i>E.Milii</i> etanol 70%	18±1.2	16±1.3	24±0.1	6±0.2
<i>E.Milii</i> etanol 96%	24±1.3	18±1.3	24±1.3	12±1.2
<i>E.Milii</i> xloroform	18±1.6	16±1.4	26±1.3	6±1.0
Ceftriaxone	30±1.2	30±1.2	30±1.2	30±1.2
DMSO	12±1.4	12±1.3	12±1.6	8±1.1

Euphorbia milii ekstrakti turli xil fraksiyalarining zamburug`larga qarshi ta`siri ham in vitro usulida *Fusarium oxysporum* shtamm zamburug`ida tekshirib ko`rildi.

12-jadval

Euphorbia milii o`simligi ekstrakti turli xil fraksiyalarining zamburug`larga qarshi ta`siri

№		Konsentratsiyasi % da	Ingbirlash hududi <i>Fusarium oxysporum</i>		Xatolik ehtimoli (±)
			mm da	% da	
1.	Tebucanazol	1	15	100	0.9
2.	70% Etanol	1	3	20	1.2
3.	Butanol	1	2.2	16.6	07
4.	Xloroform	1	8	53.3	1.4
5.	Benzin	1	2.4	16	1.5
6.	Etil atsetat	1	4.1	27.3	06

Olingan natijalarga ko`ra, tajribada sinovdan o`tgan barcha moddalar o`simlik patogen zamburug`larini o`sishini to`xtatishda samarali ekanligi aniqlandi. Xloroform fraksiyasi 53.3% holatda 8 mm diapazonda eng yuqori antifungal faollikni ko`rsatdi.

Dissertatsiyaning «**Tajriba qismi**» deb nomlangan to`rtinchi bobida *Euphorbia milii* o`simligining turli hududlardan olib kelingan namunalari kimyoviy tarkibi hamda biologik faolliklarini o`rganish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari, usullari hamda sharoitlari haqida so`z yuritilgan.

XULOSALAR

1. *Euphorbia milii* o‘simligining Farg‘ona, Toshkent hamda Xorazm viloyatida o‘sovchi turlarining poyasi va bargi tarkibida fitol, squalin, tokoferol, taraxerol, karotinoid, α -amirin, β -amirin, tunbergol, fenantren, saxaroza, fruktoza, lupeol, naftalin va β -sitosterol moddalari mavjudligi aniqlandi.

2. *Euphorbia milii* o‘simligining Farg‘ona, Toshkent hamda Xorazm namunalari tarkibida 8 xil makro-, 30 xil mikroelementlar, 6 xil og‘ir metallar, apigenin, giperozid va gipoleotinin kabi flavanoidlar, B₂, PP, B₉, B₁₂, C suvda eruvchan vitaminlar mavjudligi, oqsillar va suvda eruvchan polisaxaridlarning umumiy miqdori hamda ularning namunalar tarkibida miqdor jihatidan farq qilishi aniqlandi.

3. PASS ONLINE, MOLECULAR DOCKING va SWISSADME dasturlari yordamida α -amirin va β -amirin moddalarining gepatoprotektor, antibakterial, diabetga, yallig‘lanishga va gripp virusiga qarshi faolliklar namoyon qilish nazariy jihatdan tavsiya qilindi.

4. Farmako-tokskologik tadqiqotlar asosida *Euphorbia milii* poya va barg ekstraktlarining antioksidant, antibakterial va zamburug‘larga qarshi faolliklarga ega ekanligi hamda VI-guruh zararsiz birikmalar sinfiga kirishi isbotlandi.

5. *Euphorbia milii* o‘simligi tarkibida aniqlangan flavonoidlardan Xorazm viloyatida o‘sovchi dorivor o‘simliklar tarkibidagi flavanoidlarni sifat va miqdor jihatdan aniqlashda (O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining 2023-yil 21-fevraldagi №-PZ-2017092435 sonli ma’lumotnomasi) standart sifatida foydalanildi.

6. Respublikada keng tarqalgan mahalliy xomashyo hisoblanadigan *Euphorbia milii* o‘simligidan β -amirin moddasini ajratib olishning yangi usuli (natijalar asosida «Texnikaviy shart» Ts 200845944-111:2023-sonli tashkilot standarti olingan) taklif qilindi.

7. *Euphorbia milii* o‘simligi spirtli ekstraktining antiabkterial faollikka ega ekanligi ko‘rsatilib (O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2023-yil 20-fevraldagi №23-15/01-146 ma’lumotnomasi) amaliyotda qo‘llashga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

НУРАДДИНОВА МОХИРА БАХОДИРОВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА И БИОЛОГИЧЕСКОЙ
АКТИВНОСТИ РАСТЕНИЯ *EUPHORBIA MILII***

02.00.10 – Биоорганическая химия

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ

Фергана–2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.3.PhD/K541.

Докторская работа выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ферганского государственного университета (www.fdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Хаитбаев Алишер Хамидович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты

Шомуратов Шавкатжон Абдуганиевич
доктор химических наук, ведущий научный сотрудник

Нишонов Миркозим Фозилович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится “___” _____ 2023 г. в ___ часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер № ____). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; e-mail: [fardu info@umail.uz](mailto:farduinfo@umail.uz))

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2023 года.
(Протокол рассылки № _____ от “___” _____ 2023 года).

В.У. Хужаев

Председатель Научного совета по
присуждению учёной степени, д.х.н.,
профессор

Ш.Ш. Тургунбаев

Учёный секретарь Научного
совета по присуждению учёной
степени, PhD

Ш.В. Абдуллаев

Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одной из актуальных проблем в мире является извлечение биологически активных веществ из растительного сырья, изучение химической структуры и биологической активности выделенных соединений, разработка эффективных методов получения лекарственных препаратов, обладающих свойствами лечения различных заболеваний на основе новых веществ. На сегодняшний день большинство препаратов, используемых в медицинской практике, получают из природных источников. Лекарственные средства природных происхождений совершенно отличаются от синтетических препаратов своей эффективностью извлечения, легким усвоением организмом, низкими побочными эффектами, биосовместимостью и специфическими действиями. В связи с высокой потребностью фармацевтической промышленности в химических соединениях, обладающих антиоксидантным, антибактериальным, противогрибковым и противоопухолевым действием, выявление видов растений, богатых биологически активными веществами, извлечение из них биологически активных веществ и рекомендация их для фармацевтической промышленности имеет большое значение в области химии.

В мире проводится ряд научно-исследовательских работ по извлечению из растений семейства *Euphorbiaceae* рода *Euphorbia* соединений с различной биологической активностью, проведению их качественного и количественного анализа, разработке методов идентификации. Благодаря антиоксидантным, антибактериальным, гепатопротекторным и противоопухолевым свойствам препаратов «Silymarin», «Euphorbia herb», «Euphorbia cream», особое внимание уделяется изучению химического состава этих видов, определению их биологической активности и разработке научной базы для создания новых лекарственных средств на основании полученных результатов.

В нашей стране проводятся научные исследования и достигаются определенные результаты по развитию фармацевтической отрасли, сельского хозяйства, области химии, окружающей среды в результате создания эффективных лекарственных препаратов на основе натурального растительного сырья для новых конкурентоспособных на мировом рынке химических веществ, разработки нового экономически эффективного метода синтеза веществ. Рекомендации по этому поводу определены в стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы¹. Как указано в этой стратегии важное значение имеет получение высокоэффективных препаратов из природных источников, обеспечение населения дешевыми и качественными препаратами, разработка перспективных препаратов и биологически активных добавок из местных растений, создание технологии извлечения биологически активных веществ.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит для выполнения задач, поставленных в УП–55 Республики Узбекистан от 21

января 2022 года « О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли Республики в 2022-2026 годах », в ПП-3137 от 17 января 2017 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы обеспечения населения лекарственными средствами и изделиями медицинского назначения», а также в других нормативно-правовых документах, связанные с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетными направлениями науки и технологии Республики Узбекистан: VI. «Медицина и фармакология».

Уровень изученности проблемы. Во многих развитых странах мира интенсивно проводятся исследования по изучению состава растений семейства *Euphorbiaceae*, выделению биологически активных веществ и внедрению их в области фармацевтики и медицины. В частности, зарубежные ученые - С.Н.Persoon, Т.Yoshida, Т.Okuda, К.Zheng, F.Luo, Y.Sadeghi-Aliabadi, S.Singla, A.Kamla, S.M.Amer, Hye Sook Yum-Choi, Talha Ali Chohan, Saleem Hamid, Salvador Pancorbo, R.Haleshappa, D.Marie Cris, Charles Des Moulins, M.Chambers, Sadeghi Aliabadi, N.Haworth и др. изучали биологически активные вещества, их фармакологические свойства и биологическую активность представителей семейства *Euphorbiaceae*, произрастающих в разных регионах.

Академик И.Р.Аскарлов, профессор А.Х.Хайтбаев, профессор А.А.Ибрагимов и профессор В.У.Хожаев, провели ряд научных исследований в направлениях извлечения биологически активных веществ из лекарственных растений, широко распространенных в нашей республике, и внедрения их в фармацевтической промышленности и медицине. Кроме того, состав и биологическое значение растений семейства *Euphorbiaceae* были изучены в рамках научно-исследовательских работ, таких как экстракция полифенолов из состава представителей семейства *Euphorbiaceae* и создание противовирусных (гриппа, ВИЧ-1) препаратов на их основании, написанных академиком С.И.Салиховым, профессором С.М.Мавляновым, докторами химических наук Н.Г.Абдуллажоновой и Р.Н.Рахимовым; выделение фенольных и азотсодержащих соединений д.х.н. М.М.Таджибаевым; определение влияния на параметры митохондрий полифенолов, выделенных из растений семейства *Euphorbia* Ю.Г. Гаиповой. Несмотря на то, что химический состав и биологическая активность многих видов, принадлежащих к семейству *Euphorbiaceae*, были изучены, до сегодняшнего дня количество биологически активных веществ в растении *Euphorbia milii*, особенно их зависимость от климатических условий, антиоксидантное, антибактериальное и противогрибковое действие не были достаточно изучены.

